

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON PREZIDENTLARI UCHRASHUV O'TKAZDILAR

Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

УЗБЕКИСТАН ВОШЕЛ В ТОП-10 СТРАН – ПОКУПАТЕЛЕЙ РОССИЙСКИХ ПРОДУКТОВ

Продолжение → 10 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY


#92 (3286) 18.11.2025

BIRJA

GAZETA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO'MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari keng ko'lamlı hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilish qat'iy ekanini tasdiqladilar



15-noyabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev o'rtasida tor doiradagi muzokaralar bo'lib o'tdi.

Ushbu davlat tashrifi O'zbekiston-Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berishi ta'kidlandi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida Toshkentda Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumi, Qozog'iston tibbiyoti kunlari, qozoq filmlari namoyishi, Ostona kunlari va bir qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yilning o'tgan davri mobaynida tovar ayirboshlash 4 milliard dollarga yetdi. O'zaro savdo hajmini oshirish va import o'rnini bosish orqali bu ko'rsatkichni 10 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Yuk tashish hajmi o'sib bormoqda, shaharlar o'rtasida haftasiga 40 dan ortiq aviaqatnovlar amalga oshirilmogda.

So'nggi yillarda 6,5 mingta qo'shma korxonalar tashkil etildi va ustuvor tarmoqlarda yirik loyihalar amalga oshirilmogda. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish

uchun 8 milliard dollardan ortiq qiymatdagi loyihalar portfeli tayyorlandi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shma investitsiya platformasini ishga tushirish taklif qilindi.

Muzokaralar davomida energetika, transport, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, axborot texnologiyalari va boshqa muhim sohalarda o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish muhimligi ta'kidlandi. Ikki mamlakat hududlari rahbarlarining birinchi Kengashini 2026-yilda Qozog'istonda o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha ham fikr almashdilar.

Samarali muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi

Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev Qo'shma bayonot imzoladilar.

Shuningdek, davlat rahbarlari Oliy Davlatlararo kengashning geologiya, nodir yer metallarini qazib olish, transchegaraviy daryolar oqimini prognoz qilish bo'yicha ikki tomonlama ishchi guruhlarini tuzish hamda O'zbekiston va Qozog'iston hududlari rahbarlarining kengashini tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qildilar.

Tashrif davomida bir qator hujjatlar imzolandi, jumladan, ular quyidagilardan iborat:

- Transchegaraviy suv obyektlarini birgalikda boshqarish va ulardan oqilona foydalanish to'g'risidagi bitim;
- Bojxona xizmati vakolatxonalarini ochish to'g'risidagi bitim;
- Chegaraoldi hududlarda yerusti radio xizmatlari tomonidan fuqarolik maqsadlarida foydalaniladigan radiochastotalarni o'zlashtirishni muvofiqlashtirish to'g'risidagi bitim;
- Qo'shma harbiy o'quvlarni o'tkazish to'g'risidagi bitim;

- Qo'shma investitsiya platformasini yaratish to'g'risidagi hadli bitim;
- 2026-2027-yillarga mo'ljallangan turizm sohasida hamkorlik bo'yicha qo'shma harakatlar rejası;
- Adliya vazirliklari o'rtasida 2025-2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;
- Tog'-kon sanoatida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi memorandum;
- O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va "Assambleya jastari" jamoat birlashmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum;
- Sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish sohasida o'zaro anglashuv memorandumı;
- Tibbiy sug'urta jamg'armalari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumı;
- Toshkent shahar hokimligi va Ostona shahar hokimligi o'rtasida hamkorlik bitimi;
- "O'zbekneftgaz" va "Kazmunaygaz" aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida hamkorlik bitimi.



Xalqaro hamkorlik

Markaziy Osiyo: savdo va investitsiya vazirlari kengashining birinchi yig'ilishi

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Эксперты стран СНГ обсудили вопросы производства перспективных материалов

→ 10 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

РЕКЛАМА VA E'LONLAR BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54



telegram
BIZNES DAILY BIRJA

O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosi, birinchi navbatda, tovar ayirboshlashni ko'paytirish, sanoat, transport, energetika va infratuzilma sohalaridagi muhim kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallash-tirish choralarini ko'rib chiqildi.

Faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Prezidentlar mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.



O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari uchrashuv o'tkazdilar

Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashdi.

Yetakchilar O'zbekiston - Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shnihilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rish, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi hamda boshqa ustuvor soha-

larda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar va samarali hududlararo aloqalarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Prezidenti Ozarbayjon bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish muhimligini qayd etdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida Ilhom Aliyev O'zbekiston yetakchisiga Maslahat uchrashuvida ishtirok etish taklifi uchun minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari, o'z navbatida, qardosh Ozarbayjon Prezidenti va xalqini joriy yil 8-noyabr kuni nishonlangan G'alabani besh yilligi bilan samimiy tabrikladi.

O'zbekiston Prezidentining shu yil iyul oyida Ozarbayjonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston - Ozarbayjon strategik sheriklik

va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Barcha darajalarda samarali almashinuvlar davom etmoqda. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi. Avtomobilsozlik, energetika, turizm va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalar faol pallaga kirgan.

Yetakchilar bo'lajak oliy darajadagi uchrashuv va tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.



Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi

15-16 noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respubli-

kasi Prezidenti Sadir Japarov, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv

diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze ishtirok etdi.

Tadbir kun tartibidan Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, ustuvor sohalarda qo'shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari o'rin oldi. Mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Maslahat uchrashuvi yakunida ko'p tomonlama hujjatlarining salmoqli to'plami

qabul qilindi. Mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam maslahatlashuvlarini o'tkazish tashabbusi O'zbekiston yetakchisi tomonidan 2017-yilning sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi.

O'zbekistonning ushbu formatdagi raisligi davrida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oluvchi 20 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi.

Zamira Tojiyeva.

Markaziy Osiyo: savdo va investitsiya vazirlari kengashining birinchi yig'ilishi

Poytaxtimizda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo va investitsiya vazirlari kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratov, Qozog'iston Respublikasi savdo va integratsiya vaziri Arman Shakkaliyev, Tojikiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va savdo vaziri Zavki Zavkizoda, Turkmanistonning savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri Nazar Agahanov, Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri birinchi o'rinbosari Elnur Aliyev, Qirg'iz Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshonkul Chotonov ishtirok etishdi.

Tadbirning maqsadi mintaqa davlatlari o'rtasida savdo, investitsiya va sanoat kooperatsiyasi sohalaridagi amaliy hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperatsion ishlab chiqarishlarni yaratishga oid qo'shma tashabbuslarni ilgari surishga qaraldi. Hamda mintaqaviy iqtisodiy muloqotni institutsional asosda rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Yig'ilishda Markaziy Osiyo mamlakatlarining savdo va investitsiya vazirlari tomonidan o'zaro savdoni rivojlantirish va sanoat integratsiyasini chuqurlashtirishga doir kompleks choralar muhokama qilindi. Tovar ayirboshlash hajmini 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, "Made in Central Asia" brendi ostida qo'shma ishlab chiqarish maydonlarini shakllantirish, xalqaro moliya institutlari va yirik investorlarni infratuzilma hamda sanoat loyihalariga jalb etish masalalari urg'ulandi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratov o'z so'zida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro savdosi barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Agar 2017-yilda tovar ayirboshlash hajmi 3,2 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich ikki baravardan ko'proqqa oshib, 6,9 mlrd dollarga yetgan. Xususan, Qozog'iston bilan savdo hajmi 4 mlrd dollarga yaqinlashmoqda, Qirg'iziston bilan 700 mln dollarga yetgan, Tojikiston bilan 570 mln dollardan ortgan, Turkmaniston bilan esa so'nggi besh yilda savdo hajmi ikki baravardan ko'proqqa ko'payib, 1,15 mlrd dollarni tashkil etgan. Ozarbayjon bilan savdo aylanmasi esa yil boshidan buyon 13 foizga o'sgan. Joriy yilning 9 oyida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon bilan tovar ayirboshlash hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 foizga o'sib, 5,5 milliard dollarga yetgan. Bugungi kunda O'zbekistonda Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon kapitali ishtirokidagi 2100 dan ortiq korxonalar ro'yxatga olingan. Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjon bilan qo'shma loyihalarning joriy portfeli 17 milliard dollardan oshadi. Masalan, Toshkent viloyatida Qozog'iston bilan yirik logistika markazi qurilmoqda, Kostanayda avtomobil, Qarag'andada elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qirg'iziston bilan Chuy viloyatida yengil va yuk avtomobillari yig'ish, Qora-Baltada to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga kirishildi, Qambarota GES-1 va Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi loyihalari ilgari surilmoqda. Tojikiston bilan metallurgiya sohasidagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi, elektr jihozlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, birgalikda geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda, to'qimachilik sanoati rivojlanmoqda. Turkmaniston bilan plastmassa va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, Buxoroda intensiv bog' barpo etish, Navoiy viloyatida polietilen quvurlar va beton ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Ozarbayjon bilan Toshkent viloyatida butun mavsumiy kurort majmuasi barpo etilmoqda, birgalikda



geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda, rangli metall konlari o'zlashtirilmoqda, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda, turar-joy va mehmonxona majmualari barpo etilmoqda. Vazir shuningdek, mintaqada savdo va sarmoyaviy sheriklikni yanada rivojlantirish muhimligini aytib o'tdi. Oldindan xabardor qilish va maslahatlashuv mexanizmlarini nazarda tutuvchi o'zaro savdo hajmini 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish, bojxona tartib-taomillarini uyg'unlashtirish, raqamli hujjat aylanishini joriy etish, ruxsatnomalarni o'zaro tan olish, chegaralarda "yagona darcha" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash taklifi ilgari surildi. Tadbirkorlarning kirish imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqaviy bozorlarga chiqish va kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish maqsadida Savdo-sanoat palatalari, vazirliklar va eksport agentliklarining raqamli platformalarini, integratsiyalashgan hududiy tovarlar va ishlab chiqaruvchilarning yagona elektron katalogini joriy etish muhimligi bildirildi. "Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan" yagona brendi ostida qo'shma ishlab chiqarish maydonchalarini tashkil etish g'oyasi o'rtaga tashlandi. Yengil, kimyo, oziq-ovqat, qurilish hamda farmatsevtika sanoatlari qo'shma brendni yaratish uchun katta imkoniyatlarga egaligi aytili. Kichik va o'rta miqyodagi qo'shma tashabbuslar uchun xalqaro moliya institutlari va yirik xususiy investorlarning mablag'larini jalb qilish uchun ustuvor loyihalarni shaffof tanlashni ta'minlaydigan mintaqaviy investitsion hamkorlik platformasini tuzish



zarurati urg'ulandi. 2026-yilda Samarqandda Markaziy Osiyo va Ozarbayjon global investitsiya forumini o'tkazish taklifi ma'lum qilindi. Shuningdek, qo'shma harakatlarni muvofiqlashtirish va qarorlarning amaliy ijrosini ta'minlash imkonini beradigan doimiy hamkorlikning barqaror mexanizmini barpo etish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilish davomida Qozog'iston Respublikasi savdo va integratsiya vaziri Arman Shakkaliyev, Tojikiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va savdo vaziri Zavki Zavkizoda, Turkmanistonning savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri Nazar Agahanov, Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri birinchi o'rinbosari Elnur Aliyev, Qirg'iz Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshonkul Chotonov so'zga chiqib, bojxona va chegara tartib-taomillarini yanada optimallashtirish, transport-logistika infratuzilmasini uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish zanjirlarini birlashtira oladigan sanoat xabarlari yaratish zarurligini ta'kidlashdi. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, xomashyo va texnologik imkoniyatlarni birgalikda o'zlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish masalalari alohida muhokama qilindi.

Tadbir yakunida iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, kooperatsiya va qo'shma ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, investitsiyaviy o'zaro hamkorlikning yangi mexanizmlarini yaratishga oid asosiy kelishuvlarni o'z ichiga olgan qo'shma kommyunike imzolandi.

ЭЪЛОН!

Оҳангарон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 ноябрдаги 4-1107-2502/11005-сонли ажрими билан "Betamix" МЧЖга (СТИР 308676695) нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) иши қўзғатилиб, қузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Мамадияров Хасан Жуманазарович тайинланган.

Қузатув таомили жараёнида олиб борилган ишлар бўйича кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 18 декабрь куни соат 16.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани Хирмонтепа МФЙ, 19-мавзе, 45-уйда бўлиб ўтиши белгиланган.

Қўн тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботини тасдиқлаш.
 2. Аниқланган кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
 3. Қарздорга нисбатан ташқи бошқарув, суд санацияси, келишув битимини тузиш,
 4. Қузатув жараёнида ўтказилган таҳлил натижалари бўйича қилинган хулосага асосан қарздорни тўловга қобилиятсизликнинг бошқа таомилига ўтказиш.
 5. Муваққат бошқарувчи вазибаларини бажарганлиги учун ҳақ тўлаш миқдори ва тартибини белгилаш.
 6. Қоңунда назарда тутилган бошқа масалалар.
- Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат асл нусхаси ва кредиторлик қарзи бўйича асосли ҳужжатларнинг асл нусхаси, кредиторлар йиғилишида қатнашиш ва кредитор манфаатларини ҳимоя қилишга ваколат берилган ҳужжатнинг асл нусхасини тақдим этишлари шарт.
- Эълон чиққан кундан эътиборан (индекс:100182) Тошкент шаҳар, Сергели тумани Қўн-барока МФЙ массив А.Навоий кўчаси, 100-уйга ёки +99890 987 97 91, +99899 985 19 78 телефон рақамлари ҳамда omad.zari@mail.ru электрон почтаси орқали мурожаат қилиш мумкин.

Косон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 11 ноябрдаги 4-1804-2501/3874-сонли иш бўйича ажрими асосан Муборақ туманидаги "Муборакнефтогазмонтажмаҳсуқурилиш" МЧЖга (СТИР 200697876) нисбатан банкротлик иши қўзғатилиб, қузатув таомили жорий этилди. Раҳманов Абдимуним Мирзаевич муваққат бошқарувчи этиб тайинланди.

Қарздорга нисбатан барча талаблар бўйича эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида Қарши шаҳри, Амур Темур кўчаси, 43-уйга мурожаат юборилиши мумкин.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 9 декабрь куни соат 15.00 да Қарши шаҳри, Амур Темур кўчаси, 43-уйда ўтказилади. Суд муҳокамаси 2025 йил 11 декабрь куни соат 10.00 да Косон туманлараро иқтисодий суди биносидида бўлиб ўтади.

Тел: +99888 663 12 09.

**ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ /
REKLAMA VA E'LONLAR BO'LIMI**



+998 (99) 353-55-54

telegram **BIZNES DAILY BIRJA**

Zamira Tojiyeva.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti bo'lib o'tdi

Poytaxtimizda o'tkazilgan ushbu majlisda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston parlamentlari rahbarlari, vazirlik-idoralar, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirni Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva ochib berdi va ma'ruza qildi. U o'z so'zida mintaqada ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ularning salohiyatini namoyon etish va davlat boshqaruvidagi o'rini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ta'kidladi. Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot natijalariga to'xtalib o'tdi. E'tirof etilganidek, O'zbekistonda so'nggi sakkiz yilda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 110 ga yaqin qonun va me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bugungi kunda xotin-qizlar deputatlik korpusining 38 foizini tashkil etib, ijro hokimiyati organlarida 35 foizga yaqin rahbarlik lavozimlarini egallab kelmoqda. Tadqiqotchi, ilmiy rahbar va ixtirochi ayollar soni, jumladan, sun'iy intellekt va "yashil" texnologiyalar kabi istiqbolli yo'nalishlarda ham ortib bormoqda. Oxirgi yetti yilda tadbirkor ayollar soni 3,7 barobar oshdi. 2018-yilda 74 ming nafarga yaqin xotin-qiz tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 274 ming nafardan oshdi. Bunga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatishdan tortib, ayollarning moliyalashtirish va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishgacha bo'lgan ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan ko'rilgan maqsadli chora-tadbirlar ko'mak berdi. O'zbekistonda qashshoqlik darajasi 35 foizdan 6,6 foizga tushirildi. Bu muvaffaqiyat oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlar



bandligini kengaytirishga qaratilgan "Qashshoqlikdan - farovonlik sari" davlat dasturi ijrosining samarasidir. Parlamentlararo ittifoq ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston parlament quyi palatasidagi ayollar ulushi bo'yicha dunyoda 15-o'rinda turadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston ayollarning iqtisodiy va siyosiy huquqlarini kengaytirishda eng ko'p muvaffaqiyatga erishgan besh davlat qatoriga kiradi.

Erishilgan shunday muvaffaqiyatlarga qaramay, alohida e'tiborini talab qiladigan faoliyat sohalari saqlanib qolmoqda. Xotin-qizlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga faolroq ko'maklashish, ularning ta'lim va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, raqamli iqtisodiyot va ilm-fandagi ishtirokini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar yetakchiligini rivojlantirish, ularning tadbirkorlikdagi faolligini oshirish,

tajriba almashish va malaka oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar ko'rish zarur. Ham ikki tomonlama, ham Markaziy Osiyo miqyosida biznes-forumlarni tizimli ravishda o'tkazish, tadbirkor ayollarning mintaqaviy tarmog'ini yaratishga ko'maklashish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan va tadbirkorlik yutuqlarini rag'batlantirish maqsadida har yili "Markaziy Osiyoda innovatsiya ayoli" mukofotini ta'sis etish istiqbolli tashabbus bo'lishi mumkin.

Tadbirda BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze, BMTning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Gwi Yeop, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabina Mahl, Qozog'iston Respublikasi parlamenti Majlisi raisining o'rinbosari Daniya Yespayeva,

va, Qirg'iziston Respublikasi Jogorku Keneshi raisi o'rinbosari Jildiz Sadirbayeva, Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi raisi o'rinbosari Mavsuma Muini, Turkmaniston parlamenti qo'mitasi raisi Bayramgozel Miradova so'zga chiqishdi. Markaziy Osiyoda ayollar rolining ortishi nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy o'sishning kafolati ekani va ushbu muloqot ayollar hamjihatligi va hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishini qayd etishdi.

Tadbir davomida bir nechta sessiyada alohida mavzularda muhokamalar bo'lib o'tdi. Jumladan, ularning birida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga doir ustuvor yo'nalishlar ko'rib chiqildi. Unda Markaziy Osiyoda ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik manbai ekanligiga alohida urg'u berildi. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va biznesdagi imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqada tadbirkor ayollar o'rtasida hamkorlik loyihalarini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi. Ayollar tadbirkorligi nafaqat kichik va o'rta biznesni rivojlantirishi, balki ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutishi e'tirof etildi. Ma'ruzalarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qonuniy va institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, moliyaviy resurslarga erishishdagi to'siqlarni kamaytirish, biznesni raqamli iqtisodiyot va eksport bozorlariga integratsiya qilish, mintaqaviy qo'shma startaplarni va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda gender stereotiplar va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish masalalariga e'tibor qaratildi. Bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, ayollar tadbirkorligi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, o'quv dasturlari, biznes-kouching, grantlar, eksportni qo'llab-quvvatlash kabi amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti yakunida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Mintaqa mamlakatlari yetakchi ayollarining hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan qo'shma tashabbus — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlariga yo'llangan murojaatnoma taqdim etildi. Barcha sohalarga oid ustuvor vazifalarni o'z ichiga olgan mintaqaviy "yo'l xarita" sini ishlab chiqish bo'yicha kelishuvga erishildi.



Bandlik va farovonlik: tadqiqot natijalari

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazida Markaziy Osiyoda bandlik va farovonlikning iqtisodiy o'sish masalalari bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy muhokama bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari vakillari ishtirokida mintaqadagi mehnat bozorining asosiy tendensiyalari, muammolari va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqildi. Unda Jahon bankining "Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: bandlik va farovonlik" mavzuidagi tadqiqoti natijasi taqdim etildi. Hisobotda makroiqtisodiy jarayonlar va mehnat bozorlari dinamikasi, shuningdek, mintaqaning iqtisodiyoti barqarorligi va moslashuvchanlik masalalari tahlil qilindi.

Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Nadji Benxasinning ta'kidlashicha, O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakat barqaror iqtisodiy o'sish bosqichiga kirdi. Bu o'zgarishlar milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun yangi yo'l ochdi. Hozirgi sharoitda ushbu dinamikani faqat yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishish uchun emas, balki malakali yoshlarni

ish bilan ta'minlash orqali ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ham saqlab qolish juda muhim. Ish o'rinlarini yaratish va yoshlarning qobiliyat hamda intilishlariga mos imkoniyatlarni kengaytirishni ustuvor yo'nalishga aylantirgan O'zbekiston farovon va inklyuziv kelajak uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Bunda har bir fuqaro mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib, uning samarasidan bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori o'rinbosari Nozimjon Ortig'ov e'tirof etganidek, kuch va sa'y-harakatlarni birlashtirgan holda, ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarga tayanilsa, global chaqiriqlarga bardosh bera oladigan barqaror iqtisodiyotni va barchaga imkoniyatlar yaratadigan mintaqani shakllantirish mumkin. "Yashil" iqtisodiyot va sun'iy intellekt rivojlanayotgan hozirgi sharoitda inklyuziv ish o'rinlarini yaratish uchun davlat,



biznes va hamkorlarning sa'y-harakatlarini jamlash zarur.

Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha bosh iqtisodchisi Ivan Torre hisobotning asosiy xulosalarini taqdim etib, uning uchta ustuvor yo'nalishini alohida ta'kidladi. Ular bandlikni qo'llab-quvvatlovchi inson kapitali va jismoniy infratuzilmani rivojlantirish, biznes uchun qulay sharoitlarni ta'minlovchi dasturni amalga oshirish, barqaror huquqiy-normativ muhitni yaratish va xususiy kapitalni jalb etishdan iborat. Hisobot mualliflariga ko'ra, Markaziy Osiyo jami makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha

yetakchi pozitsiyasini saqlab qolmoqda. Prognozlarga qaraganda, mintaqaning real YaIM o'sishi 2026-yilda 5 foiz, 2027-yilda esa 4,6 foiz darajada bo'lishi kutilmoqda. Asosiy hissanisi O'zbekiston va Qirg'iziston iqtisodiyotlari ta'minlaydi. O'zbekiston mintaqadagi eng tez sur'atda rivojlanayotgan beshta iqtisodiyot qatoriga kiradi. Mamlakatda 2025-yilda YaIM 6,2 foizga, 2026-yilda esa 6 foizga o'sish kutilmoqda.

E'tirof etilishicha, Markaziy Osiyo mamlakatlarida bandlikning yangi rivojlanish nuqtalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yuqori texnologiyalar uchun zarur

bo'lgan kamyob yer minerallarini qazib chiqarish sohasida shakllanmoqda. Mintaqaning salohiyati ichki energiya talabining ortib borishi, qulay geografik joylashuvi va quyosh hamda shamol elektr stansiyalarini ravnaq toptirish uchun yetarli yer resurslariga egaligi bilan belgilanadi. Markaziy Osiyoda bandlikning o'sishi hozircha mo'tadil, ammo barqaror tusda kechmoqda. Eng katta hissa O'zbekistonga to'g'ri keladi — bu yerda YaIM o'sishi bilan ish o'rinlari yaratilishi o'rtasidagi mutanosiblik yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Qozg'iston ham mintaqaviy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda, ammo uning ta'siri bandlik darajasiga nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sishga nisbatan ijobiy bandlik elastikligini namoyon etmoqda, bu esa iqtisodiy o'sishni yangi ish o'rinlariga aylantirish qobiliyati mavjudligini ko'rsatadi.

Tadbir davomida bandlikni mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish va mintaqaviy iqtisodiyotlar barqarorligini oshirish yo'llari haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Ekspertlar tomonidan milliy va xalqaro institutlar o'rtasida tahliliy ma'lumotlar hamda ilmiy tadqiqotlar bilan muntazam almashinishning ahamiyati alohida ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston va xalqaro kapital bozorlari-2025 konferensiyasi

Tadbir yetakchi xalqaro konsalting kompaniyalari — FTI Consulting, Rothschild & Co, Citi, PwC, White & Case, IB Translations, Fanda, Alef Quad va New Stage Advisory hamkorligida, "UzAssets" AJ, London fond birjasi hamda Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi ko'magida tashkil etildi.

Unda ekspertlar, xalqaro konsultantlar, mamlakatimiz davlat korxonalar vakillari ishtirok etishdi. Asosiy e'tibor kapital bozorini rivojlantirish, kompaniyalarni IPO jarayoniga tayyorlash va ilg'or korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, xalqaro kapital bozorlariga kirishga tayyorgarlik ko'rayotgan kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash masalalariga qaratildi.

"UzAssets" AJ boshqaruvi raisi Bobur Abdinazarov konferensiya avvalida so'zga chiqib, mamlakatimiz ochiqlik, shaffoflik va xalqaro investorlar bilan faol hamkorlik tamoyillariga asoslangan yangi iqtisodiy transformatsiya bosqichiga kirib kelayotganini ta'kidladi. Uning e'tiroficha, korporativ sektor islohotlari va fond bozorini rivojlantirish xususiy kapitalni jalb etish, davlat aktivlaridan samarali foydalanish hamda yurtimizning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, alohida e'tibor IPO, SPO va xususiylashtirishga qaratilib, ushbu jarayonlar kapital bozorini chuqurlashtirish bilan birga, yirik davlat korxonalarida shaffoflik va samaradorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi. 2025-yil iyun oyida Fitch agentligi O'zbekistonning suveren reytingi darajasini oshirdi, S&P va Moody's agentliklari ham mamlakat reytingi bo'yicha prognozlarini yaxshiladi. Korporativ darajada esa hozir mam-

lakatimizning 16 ta yirik davlat korxonasi xalqaro kredit reytingiga, 7 ta kompaniya esa ESG reytingiga ega bo'lgani korporativ boshqaruvning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, barcha yirik davlat korxonalarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobotlar tayyorlanib, yetakchi xalqaro audit kompaniyalari tomonidan tekshirilmoqda.

Konferensiya davomida boshqa so'zga chiqqanlar kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha islohotlarning asosiy yo'nalishlari, xalqaro hamkorlar bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari, korporativ boshqaruv va hisobot standartlarini joriy etish, barqaror rivojlanish tamoyillarining kompaniyalar



investitsion jozibadorligini oshirishdagi roliga to'xtalib o'tishdi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligining kapital bozorini tartibga solish departamenti boshlig'i Soibjon Xudayberdiyev agentlik o'zining yangi kapital bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatlariga 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab kirishgani va bugungacha qadar sezilarli natijalarga erishganini e'tirof etdi. Masalan, tartibga solish uchun sinov rejimi ishga tushirildi, unga Bank of Georgia, OTP Bank, TBC Capital va Armaniston Markaziy depozitariysi kabi xalqaro ishtirokchilar qo'shildi. Bundan tashqari, "Toshkent" respublika fond birjasida Free of Payment savdo platformalari joriy etildi, 50 milliard so'mlik birinchi "yashil" obligatsiyalar chiqarildi. Markaziy depozitariy orqali masofadan turib investorlarni aniqlash va dividend to'lash mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida



"Kapital bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar loyihalari ishlab chiqildi. Bu kabi choralar global moliya tizimiga integratsiyalashgan investorlar uchun shaffof, raqobatbardosh va jozibador kapital bozorini yaratishga qaratilgan.

Muhokamalar davomida "Toshkent" respublika fond birjasi va uning depozitariy tizimini modernizatsiya qilish zarurligi bildirilib, ba'zi joylashtirishlarni ichki bozorda o'tkazish va o'zbek investorlariga milliy kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga kirish imkonini beruvchi ikki tomonlama listing mexanizmini joriy etish g'oyasi qo'llab-quvvatlanishi ta'kidlandi.

O'z navbatida "Toshkent" respublika fond birjasi boshqaruvi raisi v.v.b. Fayzulla Tashov birjada amalga oshirilayotgan islohotlar, birja infratuzilmasi — depozitar va kliring tizimlarining tayyorgarlik darajasi, investitsiya jamg'armasi aksiyalarining bir qismini 2026-yil oxirigacha joylashtirish bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berdi. Barcha jarayonlarning samaradorligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratdi. Birjaning texnik imkoniyatlarini modernizatsiya qilish bo'yicha "yo'l

xarita"si allaqachon tasdiqlanganini, Koreya fond birjasi tomonidan taqdim etilgan obyekt o'z faoliyatini davom ettirayotgani, ammo kapital bozori keskin o'zgarib ketayotgani va yangi texnik yechimlar kerakligini urg'uladi. Uning e'tiroficha, depozitariy va birja faoliyati bilan bog'liq asosiy risklar ro'yxati tuzilgan va bu borada faol ishlamoqda. Kelgusi yil nafaqat fond birjasi, balki kapital bozorining barcha infratuzilmasi — depozitariy va kliring tizimlari uchun ham yutuqlar yili bo'lishi kutilmoqda. Regulyator bilan birgalikda barcha asosiy yangilanishlarni yakunlash uchun kelgusi yilning oxirigacha qisqa muddat belgilangan.

Konferensiya davomida IPO masalasiga bag'ishlangan amaliy seminar va trening o'tkazildi. Bunda qimmatli qog'ozlarni xalqaro bozorda joylashtirishning huquqiy jihatlarini, moliyaviy hisobot, investorlar bilan o'zaro hamkorlik hamda ommaviy axborot vositalari bilan ishlash masalalari chuqur muhokama etildi. IPOga tayyorlash va kompaniyaning odatiy xatolari, aksiyadorlarning samarali kapital tuzilmasini yaratish, korporativ boshqaruv va hisobot talablari, ESG omillarining kapitallashuvga ta'sirini baholash jihatlariga e'tibor qaratildi. Tadbirda yakuni-da soha bo'yicha o'zaro tajriba almashinib, istiqbolli investitsiya loyihalari muhokama qilindi.

Zamira Tojiyeva.

Investitsiyani jalb qilish va ish o'rnini yaratish holati o'rganildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining axboroti eshitildi.

Tadbir parlament quyi palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi hamda Kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlarning holatini o'rganish bo'yicha ishchi guruhi tomonidan tashkillashtirildi.

Unda Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari Akrom Aliyev iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Uning ta'kidlashicha, davlat investitsiya dasturi doirasida joriy yilning 9 oyida 30,5 mlrd dollarlik xorijiy investitsiyani o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda bu ko'rsatkich 35,7 mlrd dollar qilib bajarilgan. Hududlar kesimida yuqori o'zlashtirish Toshkent shahrida, Namangan, Toshkent va Farg'ona, Andijon, Jizzax viloyatlarida kuzatilgan. Energe-



tikada 24 ta, qurilish materiallari sanoatida 36 ta, qishloq xo'jaligida 43 ta, to'qimachilikda 30 ta, elektrotexnika 14 ta, kimyo sanoatida 17 ta loyiha ishga tushirilgan. Hisobot davrida qiymati 3,8 mlrd dollarlik 92 ta yirik va ahamiyatli loyiha ishga tushirilib, 11,2 mingta ish o'rnini yaratilgan. Masalan, Angren shahrida qiymati 60 mln dollarlik "Bab energy ve petrol urunlari" MChJ tomonidan "Apartak-3" ko'mir konini o'zlashtirish (1-bosqich) loyihasi asosida 605 ta ish o'rnini ochilgan. Buxoro viloyati G'ishduvon va Peshku tumanlarida Saudiya Arabistonining "Acwa power" kompaniyasi ishtirokida quvvati 1 GVt bo'lgan shamol elektr stansiyalarini qurish ishlari yakunlangan. "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tomonidan "Iltekn" (Turkiya) kompaniyasi ishtirokida Toshkent shahrida Olmazor va Sergeli tumanlarida quvvati 3,5 MVt bo'lgan 11,9 mln dollarlik kogeneratsiya qurilmalarini o'rnatish loyihasi ishga tushirilib, 25 ta yangi ish o'rnini barpo

etilgan. Qurilish materiallari sohasida umumiy qiymati 540 mln dollarlik 15 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 1,2 ming nafar aholi ish bilan ta'minlangan. Samarqand shahrida 220 mln dollarlik "Azia metall prof" MChJ tomonidan maishiy texnika va avtomashinalar uchun tunuka list ishlab chiqarish loyihasi (300 ta ish o'rnini), Uchko'prik tumanida 70 mln dollarlik "Yong xin" MChJ tomonidan keramogranit plitalar ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi (500 ta ish o'rnini) ham shular jumlasiga kiradi. Hududiy investitsiya dasturi doirasida esa yanvar-sentyabr oylarida 4,3 mlrd dollarlik 5 312 ta loyiha ishga tushgan va 127,6 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Kosonsoy tumanidagi yirik loyiha "Terri jar tekstil" MChJ tomonidan 26,5 mln dollarlik to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 650 ta, Andijon shahrida "VBM Fabriks" MChJ tomonidan 41 mln dollarlik mato to'qish va bo'yashni tashkil etish loyihasi ishga tushirilib, 500 ta, Kogon tumanidagi "Xiang yang group" MChJ tomonidan qiymati 20 mln dollarlik qog'oz va karton mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, 300 ta ish o'rinlari yaratilgan. Barcha loyihalarning amalga oshirilishi bo'yicha haftalik monitoring ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, maxsus iqtisodiy zonalarda o'tgan 9 oyda 68 ta loyiha ishga tushgan. Misol uchun, "Nukus" EIZda "Qoraqalpog' Basaltwool" MChJ tomonidan qiymati 50,4 mln dollarlik, bazalt mineral tolasidan issiqlik o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish orqali 200 ta, "Namangan" EIZda "Iftihor Kiyim Sanoat" MChJ tomonidan qiymati 75,0 mln dollarlik ip kalava ishlab chiqarish asosida 800 ta, "Qo'qon" EIZda "Crown Ceramics" MChJ tomonidan qiymati 40,0 mln dollarlik turli xildagi keramik (kafel) mahsulotlari ishlab chiqarish orqali 400 ta ish o'rnini yaratilgan.

O'z navbatida quyi palataning Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi Muxsinjon Xolmuxamedov so'zga chiqib, vazirlik tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar tahliliga to'xtalib o'tdi. Uning ta'kidlashicha, joriy yilning 9 oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda jami 8941 ta loyiha evaziga 274 mingta ish o'rnini yaratish belgilangan bo'lsada, amalda ushbu reja atigi 46,5 foizga bajarilgan. Qoraqalpog'istonda ushbu ko'rsatkich atigi 28 foizni tashkil etgan, xolos. Farg'ona viloyatida 80,6 foiz, Surxondaryo viloyatida 65,9 foizdan ko'proq bo'lsa-da, qolgan hududlarda 50 foiz atrofida yoki undan ham kam. Sohalar kesimidagi ish o'rinlari tahliliga qaraganda, qishloq xo'jaligida 75,7 foiz bo'lsa, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida 42 va 45 foizni tashkil etgan. Qo'mita o'rganishlariga ko'ra, amalda o'zlashtirilgan va rasmiy hisobotlar, bojxona va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan investitsiyalar qiymati va yaratiladigan ish o'rinlari ko'rsatkichlari o'rtasida farqlar mavjud. Xususan, "Andijan wcc cement" MChJ tomonidan statistika hisobotida 2024-yil 80 mln dollar, shundan 40 mln dollari asbob-uskunlarga va 40 mln dollari qurilish-montaj ishlariga investitsiya



kiritilgan. Taqdim qilingan bojxona hujjatlariga asosan 2024-yilda korxonalar jami 30,6 mln dollarlik asbob-uskuna import qilgan. Joriy yilda amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlari bo'yicha hujjatlar mavjud emas. "Toshbuloq teks" MChJ statistika hisobotiga asosan 2024-yilda 25,1 mln dollar, shundan 8,1 mln dollar asbob-uskunlarga, 17 mln dollar qurilish-montaj ishlariga investitsiya kiritgan. Bojxona hujjatlariga muvofiq esa, o'tgan yili korxonalar tomonidan jami 9,7 mln dollarlik asbob-uskuna import qilgan. Amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlari bo'yicha hujjatlar mavjud emas. "Buxoro Zarhal Teks" MChJ tomonidan amalga oshirilgan va ip-kalavalarni bo'yash loyihasi doirasida amalda 230 ta ish o'rinlari yaratilgan. Soliq hisobotlarida bu raqam 176 ta, ishga tushirish dalolatnomasida 150 ta deb ko'rsatilgan.

Shuningdek, deputat xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilayotgan korxonalarda mahalliy ishchilarni ishga olish, ularni o'qitish, malakasini oshirish bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilmayotganligini, loyihalarni tasdiqlash jarayonida mahalliy aholi manfaatlarini inobatga oluvchi shartlar aniq va tizimli belgilamaganligi hududlarda ziddiyatlar keltirib chiqarayotganligini urg'uladi. Shu kabi holatlar inobatga olinib, qo'mita bilan vazirlik o'rtasidagi hamkorlik yanada kuchaytirilishi, ishlab chiqilayotgan investitsiya faoliyatiga oid qonunchilik hujjati loyihasiga investorlarning ish o'rinlarini yaratish va mahalliy xodimlarni barqaror va munosib ish bilan ta'minlash bo'yicha majburiyat hamda imtiyoz belgilanishi maqsadga muvofiqligi bildirildi. Tadbir davomida mamlakatimizga kiritilgan jihoz va uskunalarini to'liq ishlatmaslik, ajratilgan kreditlar va imtiyozlardan samarali foydalanmaslik holatlari kuzatilayotgani e'tirof etildi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish hamda mahsulot tannarxini kamaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Deputatlar va ishchi guruh a'zolari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada kengaytirish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish natijasida tashkil etiladigan korxonalarni ko'paytirish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, quvvatlarini oshirish, milliy brendlarni dunyo bozoriga olib chiqishni jadallashtirish yuzasidan taklif-tavsiyalar berildi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tegishli departamentlari rahbarlari o'rtaga tashlangan bir qator dolzarb savollarga javoban mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida ma'lumot berishdi.

Islom mamlakatlari standartlari va metrologiya instituti 20-bosh assambleyasi yig'ilishi bo'lib o'tdi

Ushbu nufuzli xalqaro tadbirning Toshkent shahrida o'tkazilishi haqidagi qaror 2024-yil noyabr oyida Istanbulda bo'lib o'tgan Islom mamlakatlari standartlari va metrologiya institutining (SMIIC) 19-bosh assambleya yig'ilishi doirasida qabul qilingan.

Ma'lumot uchun ta'kidlash kerakki, SMIIC 2010-yilda Islom hamkorlik tashkilotiga (OIC) a'zo davlatlar tomonidan tuzilgan. Bosh qarorgohi Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan. Unga dunyoning 48 ta (44 ta to'laqonli, 4 ta muxbir) mamlakati a'zo hisoblanadi. Mamlakatimiz mazkur tashkilotga 2019-yilda to'laqonli a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bu yo'nalishdagi vakolatli organ sifatida belgilangan. Shu bois agentlik tomonidan ushbu tuzilma talablari asosida 70 dan ortiq xalqaro standart qabul qilingan. SMIIC bosh assambleya yig'ilishi

yilda bir marotaba barcha 48 ta a'zo davlat vakillari, shuningdek, kuzatuvchilar hamda OIC, UNIDO, AIDSMO, GSO, IFHAB, ICCD, IOFS kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar delegatlari, olimlar va ekspertlarni bir joyga to'playdi. Uning maydonchasida savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash sohasidagi strategik ustuvor masalalar muhokama qilinadi, tashkilotning dasturlari va budjeti tasdiqlanadi.

Tashkilot navbatdagi tadbirining poytaxtimizda o'tkazilgan nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tarixiy voqea bo'ldi. Tashkilot qariyb 15 yildan so'ng tarixda birinchi bor bosh assambleya yig'ilishini Markaziy Osiyo davlatlaridan biri — O'zbekistonda uyushtirdi. Bu yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish borasidagi ishlarning jadal-lashayotgani, halqaro standartlar

bilan chambarchas bog'liq "yashil" iqtisodiyot va raqamlashtirishga o'tish yo'lining qat'iy davom ettirilayotgani, barqaror rivojlantirish maqsadlarini ilgari surishga qo'shayotgan hissasining xalqaro miqyosda tobora ortib borayotgani e'tirofini aks ettiradi. Bundan tashqari, respublikamizning global tashabbuslarda hamkor va jahon standartlari kun tartibi kelajagini shakllantirishda teng ishtirok etishga qodir mamlakat sifatidagi maqomini, Toshkentning esa yirik iqtisodiy, sanoat, diplomatiya markazi ekanligini tasdiqlaydi.

Tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqan Texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori Akmal Jumanazarovning ta'kidlashicha, o'tgan yili mamlakatimizda investitsiya hajmi 35 milliard dollarga, eksport 27 milliard dollarga yetgani xalqaro standartlarni joriy etishning amaliy natijasidir. Islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda

ham o'zining munosib aksini topmoqda. Masalan, Iqtisodiy erkinlik indeksida so'nggi besh yilda 48 pog'onaga yuqori ko'tarildi. Garvardning Iqtisodiyot murakkabligi indeksidagi o'rnini 28 pog'onaga yaxshilandi. Global ishlab chiqarish zanjirlarida har bir davlat uchun teng sharoitni ta'minlaydigan ishonchli qoidalarga bo'lishi zarur. Bu borada Jahon savdo tashkilotining alohida o'rnini bor. Shu bois kelgusi yilda ushbu tashkilot a'zosiga aylanish bo'yicha maqsad qo'yilgan va hamkorlar bilan faol ishlanyapti. Hozirda milliy qonunchilik JST bitim, qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirildi, milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish darajasi 40,6 foizga yetkazildi. SMIIC, ISO, IEC texnik qo'mitalar doirasidagi hamkorlik kengaytirildi. Xalqaro standartlarga uyg'unlashish O'zbekistonning global iqtisodiyotda munosib o'rin egallashiga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bo-

zorlar eshiklarining ochilishiga xizmat qiladi. Xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, "yashil" iqtisodiyot, "yashil" energiya, raqamli texnologiya va sun'iy intellekt, transport va logistika alohida e'tibor qaratilmoqda. Bosh assambleya yig'ilishida standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash bo'yicha ko'rib chiqiladigan masalalar savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga salmoqli hissa qo'shishi, shubhasiz.

Tadbir davomida panel sessiyalar, mavzuli muhokamalar va ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi. SMIICga a'zo Tailand, Eron davlatlari bilan soha yo'nalishida hamkorlikka qaratilgan hujjatlar imzolandi. Turkiya, Qozog'iston, Malayziya, Iroq, Saudiya Arabistoni va boshqa mamlakatlar vakillari bilan amaliy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan muloqotlar uyushtirildi.

Узбекистан вошел в топ-10 стран — покупателей российских продуктов

Как сообщается информационным порталом газеты Известия, за первые 10 месяцев 2025 года российский экспорт продукции агропромышленного комплекса (АПК) в Узбекистан увеличился на 15% относительно аналогичного периода прошлого года и составил \$938 млн. В текущем году Узбекистан вошел в топ-10 крупнейших покупателей российских продуктов питания. Отмечается, что Узбекистан — импортер широкой линейки российской продукции агропромышленного комплекса.

Первую позицию в текущем году занимают поставки сахара и сахара-сырца: в январе–октябре их отгружено на сумму \$188 млн, что на 37% больше 10 месяцев

2024 года. На втором месте в структуре поставок — шоколадные кондитерские изделия, экспорт которых в азиатскую страну увеличился на 10% год к году, до \$82 млн. Также в тройку лидеров входят соевые шрот и жмых (\$61 млн, 25%).

Кроме того, за рассматриваемый период Россия значительно нарастила экспорт в Узбекистан хлебобулочных и мучных кондитерских изделий — на 20%, сладких газированных напитков — на 21%, майонеза и соусов — на 25%, маргарина — на 31%, сыров и творога — на 34%, мороженой рыбы — на 47%, кормов для кошек и собак — на 56%, растворимого кофе — в два раза, мяса птицы — в 2,7 раза, а живых животных — в 12 раз.



Эксперты стран СНГ обсудили вопросы производства перспективных материалов



В Отделении Исполнительного комитета СНГ в городе Москва, состоялось заседание экспертной группы по разработке проектов Концепции развития сотрудничества государств — участников Содружества Независимых Государств в области производства перспективных материалов для высокотехнологичных отраслей промышленности и плана мероприятий по ее реализации.

Мероприятие состоялось в режиме видеоконференции с участием представителей Республики Казахстан, Кыргызской Республики, Российской Федерации, Республики Таджикистан, Республики Узбекистан, НИЦ «Курчатовский институт», являющегося базовой организацией государств — участников СНГ, а также Исполнительного комитета СНГ.

С приветственным словом к участникам обратился директор департамента экономического сотрудничества Исполнительного комитета СНГ Мыскин Михаил Евгеньевич. Заседание экспертной группы прошло под председательством помощника генерального директора НИЦ «Курчатовский институт» Дасковского Михаила Исаевича.

Участники заседания отметили, что разработка новых материалов с более высокими характеристиками — прочность, усталостная долговечность, температуры эксплуатации, стойкость к внешним факторам — невозможна без современных средств производства, научной базы, высококвалифицированных инженерно-технических и производственных кадров, а также развитых кооперационных связей научных и образовательных организаций, предприятий промышленности стран СНГ.

Эксперты детально обсудили представленные предложения и дополнения и одобрили проекты документов. После процедуры согласования в правительствах проекты Концепции развития сотрудничества государств — участников Содружества Независимых Государств в области производства перспективных материалов для высокотехнологичных отраслей промышленности и Плана мероприятий по ее реализации будут внесены на рассмотрение высших органов СНГ в установленном порядке.

Концепция направлена на формирование и развитие межгосударственной научно-

технической и производственной кооперации в области производства перспективных материалов для высокотехнологичных отраслей промышленности. Среди основных направлений сотрудничества в рамках обсуждаемых документов можно выделить использование механизмов, обеспечивающих трансфер технологий и результатов научных исследований в реальные сектора экономики, разработку нормативно-технической базы и стандартов, содействие подготовке высоко-

квалифицированных кадров в области материаловедения и технологий материалов. В числе приоритетных векторов взаимодействия также содействие привлечению инвестиций в разработку перспективных материалов, повышение уровня локализации производства высокотехнологичной продукции, развитие научно-технической базы.

Ожидается, что эффективное сотрудничество государств — участников СНГ в области производства перспективных материалов внесет вклад в ускорение внедрения инновационных разработок в ведущих высокотехнологичных отраслях промышленности на пространстве СНГ.



Узбекистан и Тульская область: сотрудничество в сфере трудовой миграции

Как сообщает ИА «Дунё», делегация посольства Республики Узбекистан в Российской Федерации и представительства Агентства миграции Республики Узбекистана встретилась с администрацией Тульской области.

В ходе встречи были обсуждены вопросы развития сотрудничества в сфере миграции, защиты прав граждан и легального трудоустройства.

На встрече приняли участие представители администрации Тульской области, руководители управления экономики, труда и социальной политики, а также представители местных предприятий.

Узбекская делегация предложила расширить практику организованного трудоустройства граждан Узбекистана на предприятиях региона. Также обсуждался вопрос повышения

стоимости патентов на право трудовой деятельности, отметив, что это может повлиять на численность мигрантов на рынке труда.

Стороны договорились проводить регулярный мониторинг условий труда, социальной и медицинской защиты граждан Узбекистана, а также наладить сотрудничество в решении проблем, связанных с учащимися.

По итогам встречи было достигнуто соглашение о создании совместной рабочей группы по вопросам миграции, изучении условий труда граждан и расширении организованной трудовой миграции.





O'zbekistonda maxsus ro'yxatdan o'tgan QQS to'lovchilar haqida ma'lumot



2025-yil 1-oktyabr holatiga maxsus ro'yxatdan o'tgan QQS to'lovchilar soni 234 711 tani tashkil etdi. Bu 2024-yilning 1-oktyabriga nisbatan 17,6% ko'p.

Eng ko'p QQS to'lovchilar quyidagi sohalarda:

Savdo - 82,6 ming

Qishloq xo'jaligi - 48,3 ming

Sanoat - 28,2 ming

QQS to'lovchilarining yuqori o'sish sur'atlari quyidagi sohalarda kuzatilmoqda:

Xizmat ko'rsatish - 59,5%

Transport - 16%;

Axborot va aloqa - 7,4%

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar dinamikasi

01.10.2025

234 711

17,6%


01.10.2024

199 567

HUDUDLAR KESIMIDA

| Hudud nomi | 01.10.2025-yil | 01.10.2024-yil | O'sish |
|---------------------|----------------|----------------|--------|
| Qoraqalpog'iston R. | 11 282 | 9 968 | 13,2% |
| Andijon | 14 635 | 12 406 | 18,0% |
| Buxoro | 15 577 | 13 429 | 16,0% |
| Jizzax | 8 748 | 8 086 | 8,2% |
| Qashqadaryo | 19 435 | 17 328 | 12,2% |
| Navoiy | 7 795 | 6 668 | 16,9% |
| Namangan | 12 539 | 10 705 | 17,1% |
| Samarqand | 17 914 | 15 423 | 16,2% |
| Syrxondaryo | 11 878 | 10 110 | 17,5% |
| Sirdaryo | 7 509 | 6 491 | 15,7% |
| Toshkent v. | 21 967 | 18 074 | 21,5% |
| Farg'ona | 18 274 | 15 275 | 19,6% |
| Xorazm | 10 810 | 9 070 | 19,2% |
| Toshkent sh. | 56 348 | 46 534 | 21,1% |

SOHALAR KESIMDA QQS TO'LOVCHILAR SONI DINAMIKASI



01.10.2024-yil holatiga 01.10.2025-yil holatiga o'tgan yil mos davriga nisbatan o'sish

Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

“Бизнес-Daily Медиа”
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир
У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.: +998 (99) 353-55-54

E-mail: biznesdm 2020@gmail.com

Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

© Газета текин тарқатилади

